



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



BOBUR OBRAZI VA “BOBURNOMA”NING FRANSIYADAGI ILMIY RETSEPTSIYASI

THE IMAGE OF BABUR AND THE SCIENTIFIC RECEPTION OF “BABURNAMA” IN FRANCE

Nasirdinova Yorkinoy Abdumuxtarovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Tillarni o‘qitish kafedrasini mudiri,

E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmail.com

ORCID: 0000-0002-6187-8090

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./OMUM2157](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./OMUM2157)

Annotatsiya. *Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur va “Boburnoma” asarining Fransiyadagi ilmiy talqini XIX asrdan XXI asr boshigacha bo‘lgan davrda tahlil qilinadi. Asosiy e‘tibor A. Pavet de Courteille, J.-L. Bacqué-Grammont, Gilles Veinstein va Jean-Paul Roux asarlaridagi tarjima va paratekstual yondashuvlar orqali Bobur obrazining shakllanishiga qaratiladi. Natijada Bobur Fransuz ilmiy muhitida tarixiy shaxs bilan bir qatorda yozuvchi-hukmdor va madaniy aktyor sifatida talqin qilinishi ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *Bobur, Boburnoma, fransuz sharqshunosligi, tarjima, paratekst, retseptsiya.*

Annotation. *This article examines the scholarly reception of Zahiriddin Muhammad Babur and the Baburnama in France from the nineteenth century to the early twenty-first century. It focuses on how translation strategies and paratextual elements in the works of A. Pavet de Courteille, J.-L. Bacqué-Grammont, Gilles Veinstein, and Jean-Paul Roux have shaped the image of Babur. The study shows that in French academic discourse Babur is represented not only as a historical ruler but also as a writer-ruler and a cultural agent.*

Keywords: *Babur, Baburnama, French Orientalism, translation, paratext, reception.*

Zahiriddin Muhammad Bobur va uning “Boburnoma” asari Markaziy Osiyo hamda Hindiston tarixini bir vaqtning o‘zida yorituvchi noyob manbalar sirasiga kiradi. Asar muallifning shaxsiy xotiralari tarzida yozilganligi, voqealarni ishtirokchi sifatida ko‘rsatishi, geografik-etnografik kuzatuvlar va shaxsiy portretlarga boyligi bilan tarixchi uchun ham, adabiyotshunoslar uchun ham alohida qimmatga ega. Shunga qaramay, Boburnomaning Yevropa ilmiy maydonidagi o‘rni, qaysi ilmiy ehtiyojlar bilan “qanday” talqin qilingani masalasini o‘rganish hamisha dolzarb hisoblanadi. Fransiya misolida esa bu masala yanada dolzarb tus oladi, chunki fransuz sharqshunosligi XIX asrdan



boshlab tarjima, filologiya va tarixshunoslikni bir-biri bilan bog'lay olgan maktab sifatida shakllangan.

Retseptsiyani faqat “o'qildi–o'qilmadi” yoki “tarjima qilindi–qilinmadi” darajasida emas, balki ilmiy tasavvurni ishlab chiqaruvchi jarayon sifatida ko'rish maqsadga muvofiq. Chunki tarjima – oddiy ko'chirish emas: unda so'zboshi, izohlar, toponimlarning yozilishi, xronologiyani berish usuli, hatto o'quvchini “tasavvur qilish” ham ilmiy talqinni belgilaydi. Shu bois “Boburnoma”ning Fransiyadagi ilmiy retseptsiyasini tahlil qilish, aslida, Bobur obrazi qanday “qurilgan”ini ham ko'rsatadi: u qachon va qaysi davrda “tarixiy guvoh”, qachon “noyob avtobiograf”, qachon esa “yozuvchi-hukmdor” sifatida qabul qilingan?

Maqolaning maqsadi – Fransiyada “Boburnoma”ni o'qish strategiyalari evolyutsiyasini va shu jarayonda Bobur shaxsiga berilgan ilmiy baho qaysi omillar ta'sirida o'zgarganini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning manbaviy asosi sifatida to'rtta tayanch matn tanlandi: 1871-yilgi A. Pavet de Courteille tarjimasini; 1985-yilgi J.-L. Bacqué-Grammont tarjimasini; Pierre Monnet va Jean-Claude Schmitt muharrirligida nashr etilgan *Autobiographies souveraines* nomli jamoaviy monografiyaga kiritilgan Gilles Veinsteinning “Le Livre de Babur” maqolasi; Jean-Paul Rouxning “Babur” biografik romani. Metod sifatida tarixiy-kontekstual tahlil, matnshunoslik, hamda resepsiya yondashuvi birgalikda qo'llanadi.

Boburnoma “tarixiy-geografik manba”, Bobur esa “kuzatuvchi hukmdor” sifatidagi talqini – fransuz sharqshunosligida Boburnoma bilan tizimli tanishuvning muhim bosqichlaridan biri – A. Pavet de Courteille tarjimasini hisoblanadi. Tarjimon so'zboshisida asarni faqat “orientalistlar” doirasida emas, balki tarix va geografiyani o'rganishga qiziqqan kengroq ilmiy auditoriya uchun ham muhim deb belgilaydi: *Il abonde en détails des plus instructifs sur les personnages politiques de la fin du XV^e siècle et de la première partie du XVI^e, sur les célébrités littéraires et artistiques de cette époque — l'âge d'or de la littérature turco-orientale —, ainsi que sur tous les hommes, princes, chefs de clan ou simples particuliers, dont le nom a mérité de ne pas tomber dans l'oubli. Il renferme, en outre, les notions les plus précises et les plus dignes de foi concernant une partie de l'Asie centrale que son éloignement, sa situation isolée au milieu de montagnes inaccessibles et glacées, la rigueur de son climat, la pauvreté de ses ressources, le caractère peu liant de ses habitants et leurs habitudes de déprédation rendent presque inabordable pour le voyageur isolé, et plus encore pour un corps d'expédition. Il ne néglige même pas les détails purement techniques relatifs à la faune et à la flore de ces provinces reculées, sans oublier, bien entendu, les considérations ethnographiques. En un mot, le lecteur sérieux et désireux d'augmenter la somme de ses connaissances est assuré d'y trouver une ample satisfaction à sa curiosité* [Pavet de Courteille, 1871:10].

Bu jumlar o'z-o'zidan retseptsiyaning dastlabki konseptual yo'nalishini beradi: Boburnoma, avvalo, faktlar va ma'lumotlar majmui, ya'ni ilmiy bilimni



“to'ldiruvchi” manba. Bunday urg'u XIX asr ilm-fanining umumiy kayfiyati bilan uyg'un: “Sharq” haqidagi tasavvur ko'pincha geografik tafsilotlar, siyosiy tarix va etnografik kuzatuvlar orqali “katalog” tarzida jamlanadi.

Pavet de Courteille Bobur shaxsini ham shu paradigmaning ichida tasvirlaydi. U Boburning siyosiy muvaffaqiyatini “o'zi yaratgan”ligini alohida urg'ulaydi: qat'iyat, bardosh, jasorat, harbiy iste'dod, zaruratda jazolay va kechira bilish kabi fazilatlar Bobur portretining markaziga qo'yiladi: *D'une persévérance à toute épreuve, doué d'une résolution inflexible, brave de sa personne, alliant la ruse à l'audace, libéral et même magnifique dans ses dons, sachant punir et pardonner au besoin, habile homme de guerre, général prévoyant, très capable de commander une armée et d'inspirer la confiance à ses soldats, dont la fidélité lui était assurée autant qu'elle peut l'être de la part de ces Asiatiques changeants et impressionnables, administrateur prudent et consommé qui ne méprisait aucun détail, ce prince n'a pas été seulement un conquérant, mais encore un fondateur, et il a eu le rare privilège de compter parmi ses successeurs des hommes tels que Sultan Ekher et Aureng-Zeib* [Pavet de Courteille, 1871:13].

Bu yerda “qahramonlashtirish” emas, balki XIX asr tarixiy tafakkuriga xos “buyuk shaxs” modeli ko'zga tashlanadi: tarix “individ” orqali tushuntiriladi, xotira esa shu individning “dalil”iga aylanadi. Shunday retseptsiya Boburnomani “o'zini ko'rsatish” uchun yozilgan matn emas, balki “katta shaxs hayotini hujjatlashtiruvchi” manba sifatida o'qishga undaydi.

Ayni paytda tarjimon Boburnomadagi yozish uslubini “samimiy va da'vosiz” deb baholaydi va Boburning til tanloviga ham izoh beradi: muallif fors tilini bilgan bo'lsa-da, turkiy-chig'atoyda yozgani “milliy ruh” hamda ona tilining nufuzini saqlash intilishi bilan bog'lanadi: *La langue dont Bâber s'est servi pour écrire ses mémoires est la pure langue turque, non pas celle des Osmanlis, où des mots d'une nationalité incontestable sont remplacés par des expressions arabes ou persanes, mais celle de l'Asie centrale, telle que l'ont maniée les poètes Nevai, Lutfi, Obeyd-Khan, Sultan-Hucein, Mir-Haider, etc., plus simple toutefois et plus naïve encore, comme il convient à une narration intime et sans prétention.*

Si notre auteur n'a pas employé l'idiome persan, qui lui était également familier et avait joui durant de longues années du monopole des compositions littéraires, on est assez fondé à supposer qu'il y a été déterminé autant par cet esprit national qui poussait alors les écrivains d'élite à réagir de toutes leurs forces contre l'envahissement d'une langue étrangère, considérée par eux comme bien inférieure à la leur, que par le souci d'être accessible aux lecteurs peu instruits [Pavet de Courteille, 1871:13].

Bu fikr Fransiyadagi ilmiy retseptsiyada Boburni “madaniy aktyor” sifatida ham ko'rsatadi: u nafaqat hukmdor, balki til va adabiyot muhitida ongli pozitsiya egallagan shaxs. Shu bilan birga, bu mulohaza fransuz o'quvchisiga Markaziy Osiyodagi “til va adabiyot siyosati”ni ham tushuntirishga urinadi: chig'atoy turkiysida ijod qilish – oddiy texnik tanlov emas, madaniy harakat.



Pavet de Courteille Boburnomani “kundalik qaydlar”ga yaqin matn sifatida talqin qilishga ham urinadi. U Boburning Hindiston haqida yozarkan “keyinchalik ko‘rgan narsalarimni qayd etaman” degan mazmundagi jumlasini dalil qilib, muallif voqealarni “kunma-kun” yozib borganini ta’kidlaydi [Pavet de Courteille, 1871:17]. Bunday talqin Boburnomani tarixiy ishonchlilik nuqtai nazaridan kuchaytiradi: “kundalik” – bu guvohning bevosita qaydi, ya’ni keyingi tahrir va ideallashtirishdan nisbatan xoli shakl sifatida tasavvur qilinadi. Natijada Bobur obrazi ham “ko‘rganini yozgan” kuzatuvchi sifatida mustahkamlanadi: u geografiya, tabiat, odatlar va siyosiy voqealarni birinchi shaxsning “ko‘zi” bilan qayd etadi.

Nihoyat, Pavet de Courteille o‘z tarjimasini avvalgi inglizcha tarjimalardan ajratish orqali fransuzcha Boburnomaga “ilmiy legitimlik” beradi: u ingliz tarjimasini turkiy aslga emas, forsiy versiyaga tayanib tuzilganini aytib, shu sabab yangi fransuzcha tarjimaga kirishganini ta’kidlaydi [Pavet de Courteille, 1871:22].

Bu yerda “asliyatga yaqinlik” ilmiy qadriyat sifatida ko‘tariladi. Natijada 1871-yilgi tarjima Boburnomani Fransiyada filologik poydevorga qo‘yadi va Bobur obrazini “aniq kuzatuvchi”, “ma’lumot beruvchi hukmdor” sifatida shakllantirdi.

XX asr oxirida J.-L.Bacqué-Grammont tayyorlagan izohli tarjima Boburnoma retseptsiyasida yangi bosqichni boshlab beradi. Kirish qismida asarning “Islomiy O‘rta asr adabiyotlari” ichida alohida o‘ringa ega ekani va u “juda kam uchraydigan janr – avtobiografiya”ga mansubligi alohida urg‘ulanadi [Bacqué-Grammont, 1985:6]. Bu yondashuv matnni faqat faktlar majmui sifatida emas, muallif “men”i bilan bog‘liq subyektiv tajriba sifatida o‘qishga undaydi. Aynan shu tarjimadan boshlab, Boburnoma Fransiyada tarix-geografiya “ombori”dan asta-sekin memoir fenomeniga aylanadi.

Bacqué-Grammont Bobur obrazini “podshoh”dan ko‘ra “inson” sifatida ko‘rsatishga urinadi. U “kalam” olgan muallif o‘zini “oltin siyoh” bilan ulug‘lamasligini, aksincha, yoshligi, kundalik hayoti, portretlar, qiziqishlar, afsuslar va g‘alabalar haqida sodda qaydlar qoldirganini ta’kidlaydi : *On pourrait attendre d’un tel personnage qu’il ait pris personnellement le calame pour célébrer à l’encre d’or les hauts faits d’un grand destin. Rien de tel, bien au contraire. Celui qui écrit n’est point le roi, mais l’homme, confiant à la feuille blanche les souvenirs de sa jeunesse, des notes sur sa vie quotidienne, des galeries de portraits, ses curiosités encyclopédiques, ses affections, ses ambitions, ses regrets, les leçons de ses échecs et les actions de grâce pour ses triomphes. Rien de moins apprêté, nul souci de séduire le lecteur ni de forcer son admiration. Avec simplicité, franchise et mille pudeurs, l’homme Babur est là, se livrant pour lui-même, pour ses proches parents et pour ses compagnons fidèles* [Bacqué-Grammont, 1985:6].



Bu talqin Boburni uzoqdagi “Sharq hukmdori” emas, balki o‘z hayotini ochiq oydin yozgan shaxsga aylantiradi va uni G‘arb o‘quvchisiga “yaqinlashtiradi”. Aynan shu yerda retseptsiyaning nozik mexanizmi ishlaydi: matn “autobiographie” deb e‘lon qilingach, o‘quvchi Boburni “tuyg‘u va xotira” egasi sifatida tasavvur qiladi.

Biroq Bacqué-Grammont “insoniy ovoz”ni romantizatsiya qilmaydi; aksincha, matnshunoslik muammolari bilan birga ko‘rsatadi. Tarjimonlar Boburning qo‘lyozmasining asl nusxasi yo‘qolganini, bizga yetib kelgan nusxalarda ko‘plab uzilishlar borligini va ulardan eng kattasi taxminan o‘n yillik davrni qamrab olishini qayd etadi. Shuning uchun hikoyaning uzilishlarini imkon qadar zamondosh xronikalardan olingan material bilan to‘ldirish zarurligi aytiladi [Bacqué-Grammont, 1985: 6-bet]. Bu – retseptsiyada muhim burilish: Boburnoma “tayyor” autobiografiya sifatida emas, balki ilmiy rekonstruksiya talab qiladigan “murakkab manba” sifatida qabul qilinadi. Demak, Bobur obrazi ham to‘liq “men” rivoyati emas, balki ayrim joylari yo‘qolgan, tahrirlangan, ko‘chirilgan matn orqali qayta tiklanadigan obrazga aylanadi.

Bacqué-Grammont nashrining “o‘qish rejimi” ham paratekst orqali boshqariladi. U matnни “ikki darajali o‘qish”ga moslab tashkil etadi: asosiy rivoyat oqimi yengillashtiriladi, shu bilan birga izoh va kontekstni saqlovchi qatlam alohida ko‘rinishda beriladi. Bu usul ilmiy retseptsiyada juda muhim: izoh “qo‘shimcha” emas, balki manbaning ajralmas qismi sifatida o‘qiladi. Tarjimonning “kirish”ni ham “muqarrar” deb e‘lon qilishi [Bacqué-Grammont, 1985:7]. Boburnomani o‘qish uchun tarixiy-geografik tayyorgarlik zarurligini oldindan belgilab beradi.

Tarjima uslubi masalasida Bacqué-Grammont oldingi an’anani tanqidiy qayta baholaydi. U Bobur tilining “oddiy, qisqa jumlati va aniq” ekanini eslatib, Pavet de Courteille tarjimasini, qisman qayta tarjima zanjiri sabab, bu “ta‘m”ni uzoqlashtirganini, Beveridj esa ortiqcha so‘zma-so‘zlik bilan matnни og‘irlashtirganini aytadi; o‘z tarjimasida esa shu ikki kamchilikdan qochib, muallif tilining “o‘ziga xos mazasi”ni fransuzchaga ko‘chirishni maqsad qiladi [Bacqué-Grammont, 1985:13]. Bu bayonot retseptsiyada “o‘qiluvchanlik” (readability) mezoni kuchayganini ko‘rsatadi: endi Boburnoma faqat “manba” emas, o‘qiladigan matn ham bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, Bacqué-Grammont ilmiy apparat orqali nom va terminlarni standartlashtiradi, ya’ni retseptsiyani “til” darajasida ham boshqaradi. Masalan, u “Babur” ismining kelib chiqishi va talaffuzi haqida filologik izoh berib, turkiy muhitda o‘zbekcha “Bobir” shakli mavjudligini ko‘rsatadi hamda XIX asr sharqshunosligida urf bo‘lgan “Baber/Babar” variantlarining filologik asosga ega emasligini ta’kidlaydi [Bacqué-Grammont, 1985:33]. Bu detal oddiy transliteratsiya masalasi bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida u ilmiy an’ananing “ustuvorligi”ni belgilaydi: qanday yozish — qanday o‘qishning ham belgisini ko‘rsatib beradi.



Jean-Paul Rouxning “Babur” biografik romani ilmiy retseptsiyani ommaviyroq o'qish maydoniga olib chiqadigan “ko'prik” vazifasini bajaradi. Muallif “hayot – teatr sahnasi” degan metafora bilan boshlaydi va biografiya ham “personajlarni tanishtirish”dan boshlanishi kerakligini aytadi: *Tragédie, comédie, farce, la vie d'un homme est, en un sens, une pièce de théâtre. Or, lorsqu'on imprime un texte conçu pour être lu, on commence par en présenter les personnages. Je ne vois pas pourquoi on ne suivrait pas cette règle dans le cas d'une biographie. Je n'ignore pas que, lorsqu'on écrit la vie d'un grand homme de l'histoire occidentale, on suppose les principaux protagonistes déjà connus* [Roux, 1986:11]. U Sharq kontekstida o'quvchi uchun bu yanada murakkabligini, chunki nomlar va unvonlar notanish, omonimlar ko'p ekanini ta'kidlaydi: *Tel n'est certainement pas le cas lorsque la scène se déroule en Orient. L'effort demandé au lecteur est d'autant plus grand que tous les noms paraissent identiques au non-spécialiste et qu'il existe en outre de nombreux homonymes* [Roux, 1986:11]. Shuning uchun u Boburnomada uchraydigan taxminan 1500 shaxsdan faqat “minimal zarur” qismini matnga kiritishga qaror qiladi: *Je me suis donc résolu à ne citer que le minimum indispensable parmi les quelque mille cinq cents personnages qui apparaissent dans la source principale, le livre de souvenirs écrit par Babur. Parmi ceux qu'il m'a néanmoins fallu retenir, plusieurs n'apparaîtront qu'occasionnellement et pourront être aussitôt oubliés. D'autres, en revanche, reviendront fréquemment et il semble utile de les conserver en mémoire: j'en donne la liste ci-dessous par ordre alphabétique; on les retrouvera naturellement dans l'index* [Roux, 1986:11]. Bu strategiya Bobur obrazini ham soddalashtirib ko'rsatadi: o'quvchi “shaxslar labirinti”da yo'qolmaydi, asosiy syujet va asosiy dramatik chiziqni ushlab turadi.

Roux biografiyasining retseptsiyaga ta'sir qiluvchi ikkinchi nuqtasi – manbaga munosabat. Muallif kitobini asosan Boburning xotiralariga tayangan holda yozganini, asar ko'pincha “Babur-name” deb atalishini, ammo aniq nomi “Vakiyat” (“Voqealar”) ekanini qayd etadi; iqtiboslarni esa Ilminskiy nashri va bir nechta tarjimalar — Beveridge, Pavet de Courteille, Bacqué-Grammont — bilan solishtirib berganini yozadi [Roux, 1986:12]. Bu yerda fransuz ilmiy maydonidagi “zanjir” ochiq ko'rinadi: biografik talqin filologik va tarjimaviy mehnat ustiga quriladi. Shu bilan Roux o'z asari orqali “ilmiy retseptsiyani” ommabop, lekin manbaga tayangan o'qishga aylantiradi.

Roux o'quvchi qulayligi uchun yana bir metodik qarorni ko'rsatadi: hijriy sanalarni har doim berish “matnga haddan tashqari sodiqlik” bo'lib, o'quvchini charchatishi mumkin; shu sabab u sanalarni tanlab beradi va ba'zan Gregoriy yiliga moslab aytishga majbur bo'lishini tushuntiradi [Roux, 1986:12]. Bu yondashuv Bobur obraziga ham bilvosita ta'sir qiladi: xronologik murakkablik yumshatilgach, Bobur hayoti “uzluksiz hikoya” sifatida o'qiladi, siyosiy kurashlar va shaxsiy kechinmalar “sahna”ga ko'chadi. Demak, retseptsiyada “o'qish qulayligi” – Boburni qabul qilishning ham sharti.



Gilles Veinsteinning “Le Livre de Babur” maqolasi fransuz ilmiy diskursida Boburnomani nazariy jihatdan tasniflashga urinish. Muallif, avvalo, matnning ichki tuzilishini tahlil qilib, Boburning asarni musulmon tarixshunosligiga xos annalistik uslubda boshlaganini, keyinchalik esa bayonning xronikal rivoyatdan kundalik (journal) shakliga yaqinlashganini ko'rsatadi; mazkur strukturaviy o'zgarish jarayonida bir qator yirik lacunalar yuzaga kelib, xususan 1508–1519 hamda 1520–1525 yillar oralig'idagi uzilishlar qayd etiladi [Roux, 1986:109]. Bu tahlil tarixchi uchun juda qulay: matnning ichki qurilishi retseptsiyani boshqaradi, ya'ni Boburnomani o'qish “tuzilmani bilish”ni talab qiladi. Demak, manba “o'z-o'zidan” emas, tahlil va izoh orqali “ishlaydigan” materialga aylanadi.

Veinstein Boburnomani “gibrid matn” sifatida tavsiflaydi: u bir vaqtning o'zida xronika, geografiya va tabiat tarixiga oid traktat hamda birinchi shaxsda yozilgan avtobiografik rivoyat xususiyatlarini o'zida mujassam etadi; shu bilan birga, mazkur manbadan tarixiy tadqiqotlarda samarali foydalanish uchun keng qamrovli annotatsiyalar – ilmiy izohlar zarurligi alohida ta'kidlanadi: *C'est aussi un traité de géographie et d'histoire naturelle concernant plusieurs régions de l'Asie. C'est enfin, incontestablement, une véritable autobiographie qui retrace, à la première personne, le fil — ô combien sinueux — d'une destinée extraordinaire, en émaillant le récit de nombreuses notations personnelles, directes ou indirectes. Il s'agit toutefois d'une autobiographie dépourvue d'introspection et de réflexivité, où tout est donné à plat, sans retour sur soi, sans interrogation ni approfondissement* [Veinstein, 2012:117].

Bu fikr Bacqué-Grammont yondashuvi bilan hamohang: izoh tarixchi uchun shunchaki yordamchi emas, manbaning “ishlaydigan” holatiga kelish sharti. Natijada Fransiyada Boburnomani ilmiy o'qishning institutsional standartlari paydo bo'ladi: manbani o'qish — uning “izohli nashri” bilan ishlash demak.

Veinsteinning “qirollik avtobiografiyasi” konsepsiyasi Bobur obrazini talqin etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. U Boburnomadagi birinchi shaxs nutqini haqiqiy avtobiografik diskurs sifatida tan olsa-da, uni introspeksiya va refleksiya xoli matn sifatida tavsiflaydi: muallif voqealarni izchil va “tekis” bayon etadi, o'z kechinmalarini tahlil qilmaydi, xissiz (patho – yunoncha – kayfiyat, xis) yozadi, biroq matnda muayyan sezgirlik va hayotiylik baribir saqlanib qolgan: *Une sensibilité s'y exprime, mais avec retenue, sans le moindre pathos. Cette autobiographie est celle d'un roi, mais d'un roi pour qui la royauté va de soi, vécue comme une évidence dès l'enfance, et qui n'éprouve nul besoin ni de la commenter ni de la mettre en scène. Elle se caractérise ainsi par une simplicité et un naturel remarquables* [Veinstein, 2012:117]. Bu talqinda Bobur “ruhiy iztiroblar” qahramoni sifatida emas, balki hukmdorlikni tabiiy hol deb qabul qilgan, amaliy va realistik dunyoqarashga ega shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, aynan ushbu soddalik va tabiiylik Boburnomani G'arb

o'quvchisi uchun ham jozibador qiladi: matn balandparvoz “qirollik tili” bilan bezatilmagan bo‘lib, bevosita va “tirik” kuzatuvlarga tayangan holda rivojlanadi.

Veinstein Boburnomani “tengsiz manba” deb atar ekan, uning “jonli refleksi”ni saqlashini ham eslatadi: *Comment expliquer l'émergence de cette œuvre singulière, sans équivalent dans la littérature islamique, de cette sorte d'OVNI, sinon par la personnalité même de son auteur, véritable force de la nature, dont le texte conserve le reflet vivant?* [Veinstein, 2012:117]. Bu ibora retseptsiyaning muhim psixologik nuqtasini beradi: Boburnoma tarixiy faktlarni emas, muallif shaxsining “tirik izini” ham olib keladi. Shunday qilib, fransuz ilmiy maydonida Bobur obrazi ikki qutb orasida barqarorlashadi: bir tomonda u yirik tarixiy aktor, ikkinchi tomonda esa o‘z tajribasini sodda tilda qayd qilgan “tirik shaxs”. Bu ikki qutbni birlashtirish esa “gibrid matn” konsepsiyasi orqali amalga oshadi.

Yuqorida tahlil qilingan to‘rt manba Fransiyada Bobur va Boburnomaning ilmiy retseptsiyasi yagona va chiziqli yo‘nalishda emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta “o‘qish rejimi” orqali shakllanganini ko‘rsatadi. A. Pavet de Courteille davrida asosiy urg‘u faktologik va hududiy bilimga qaratilib, Boburnoma tarix va geografiya uchun “nihoyatda instructif” tafsilotlar manbai sifatida baholanadi [Pavet de Courteille, 1871:10]. J.-L. Bacqué-Grammont esa asarni “noyob avtobiografiya” sifatida belgilab, Bobur bayonining sodda va ochiq ohangini uning “insoniy” qatlami sifatida talqin qiladi [Bacqué-Grammont, 1985:6]. Gilles Veinstein ushbu ikki yondashuvni nazariy jihatdan birlashtirib, Boburnomani “gibrid matn” sifatida tasniflaydi hamda manbadan samarali foydalanish uchun keng qamrovli ilmiy izohlarning metodik zarurligini asoslaydi [Veinstein, 2012:117]. Jean-Paul Roux esa mazkur ilmiy xulosalarni biografik narrativ shaklga keltirib, Bobur shaxsini G‘arb o‘quvchisi uchun o‘qilishi qulay va yaxlit biografik obraz sifatida taqdim etadi [Roux, 1986: 11–12].

Asrlar davomida Fransiyada Bobur obrazi asta-sekin murakkablashadi: u bir vaqtning o‘zida siyosiy strateg, harbiy yetakchi, til va adabiyotga qiziquvchi muallif, tabiat va makon tasviriga e‘tiborli kuzatuvchi sifatida qabul qilinadi. Eng muhimi, bu murakkablashuv “faqat Bobur matni” bilan emas, uni o‘qishning fransuzcha uslublari bilan bog‘liq: tarjima va izohlar Bobur shaxsini turli rakurslarda ko‘rsatib, ilmiy retseptsiyada yangi ma‘nolar ishlab chiqaradi.

Adabiyotlar:

1. Babur, Zahir-ed-Din-Mohammed. *Mémoires de Baber, fondateur de la dynastie mongole dans l'Hindoustan*. Traduit pour la première fois sur le texte djagataï par A. Pavet de Courteille. Paris: Maisonneuve & Cie, 1871.
2. Babur. *Le Livre de Babur: mémoires du premier grand Moghol des Indes (1494–1529)*. Présenté et traduit du turc tchaghatay par Jean-Louis Bacqué-Grammont. Paris: Imprimerie nationale, 1985.



3. Veinstein, Gilles. “Le Livre de Babur.” In: *Autobiographies souveraines*, éd. Pierre Monnet, Jean-Claude Schmitt. Paris: Éditions de la Sorbonne, 2012, p. 108–117.
4. Roux, Jean-Paul. *Babur: histoire des grands Moghols*. Paris: Fayard, 1986.
5. Bobur, Z. M. Boburnoma. — Toshkent : Fan, 2018. — 432 b.



LITERARY-LINGUISTIC AND HISTORICAL-SOCIOLOGICAL INTERPRETATIONS OF “BABURNAMA”

“BOBURNOMA” ADABIY-LINGVISTIK VA TARIXI-SOTSIOLOGIK TAVSIYALARI

Alkaya Ercan

Firat University Phd

E-mail: ealkaya16@gmail.com

Karayeva Balnur Janabayevna

Преподаватель английского языка

E-mail: Balnurkarayeva5@gmail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026.IWVF6567](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026.IWVF6567)

Annotation. *This article examines the Baburnama by Zahir-ud-din Muhammad Babur from literary-linguistic and historical-sociological perspectives. As an autobiographical chronicle written in Chagatai Turkic, the Baburnama occupies a distinctive position at the intersection of literature, linguistics, and history. The study aims to identify the narrative, stylistic, and linguistic features of the text and to analyze its value as a source for reconstructing the social, political, and cultural realities of the late fifteenth and early sixteenth centuries.*

The research is based on interdisciplinary methods, including literary analysis, linguistic examination, and historical-sociological interpretation. The findings demonstrate that the Baburnama combines expressive literary form with detailed documentation of governance, social hierarchy, military organization, and everyday life. The results highlight the significance of language contact, cultural interaction, and authorial subjectivity in shaping the narrative. The article concludes that the Baburnama should be regarded not only as a literary masterpiece but also as an important source of sociolinguistic and historical data, contributing to the study of cultural memory and identity in the medieval Turkic and Indo-Persian world.

Keywords: *Babur, Chagatai Turkic, literary-linguistic analysis, historical-sociological analysis, autobiography, medieval Central Asia, socio-cultural identity, language contact.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si adabiy-lingvistik va tarixiy-sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Chog‘atoy turkiy tillarida yozilgan avtobiografik yilnoma sifatida “Boburnoma” adabiyot, tilshunoslik va tarix chorrahasida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Tadqiqot matnning bayoniy, uslubiy va lingvistik xususiyatlarini aniqlash va uning XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy voqelikni qayta qurish manbasi sifatidagi qiymatini tahlil qilishdan iborat.*